

---

## TANISHTIRUV



Abdukarimov Elmurod Yursunboyevich Qo'shtepa tumani statistika bo'limi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.

Elmurod Abdukarimov 1983 yilda Qo'shtepa tumanida tug'ilgan. 2007 yili Farg'ona politexnika institutini tamomlagan.

Mehnat faoliyatini 2007 yilda Qo'shtepa tumani hokimligi iqtisodiyot bo'limida mutaxassislikdan boshlagan. Faoliyati davomida Qo'shtepa tumani hokimligi xuzuridagi tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish "Yagona darcha" markazida bosh mutaxassis, Farg'ona viloyati Adliya boshqarmasi Qo'shtepa tumani tadbirkorlik sub'ektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish "Yagona darcha" markazida bosh mutaxassis, tuman iqtisodiyot va hududlarni kompleks rivojlantirish bo'limida bosh mutaxassis, tuman qishloq xo'jaligi bo'limi shartnomaviy munosabatlar va qishloq xo'jaligida davlat xaridlarini shakllantirish bo'limida bosh mutaxassis, tuman iqtisodiyot va sanoat bo'limida bosh mutaxassis kabi lavozimlarda ishlagan.

Tayinlovga qadar Qo'shtepa tumani hokimligi qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha bosh mutaxassisi lavozimida faoliyat olib borgan.

Oilali, turmush o'rtog'i - uy bekasi, uch nafar farzandi bor.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2022-08-02 09:26:42